

JINOYATLARNING OLDINI OLISHDA HOKIM YORDAMCHILARINING VAZIFALARI



Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich

Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig'i,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Maqolada jinoyatchilikning oldini olish tizimida hokim yordamchilarining o'rnini va ular tomonidan amalga oshiriladigan vazifalarning ijtimoiy samaradorligi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Mahalla miqyosida aholining bandligini ta'minlash, ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, kam ta'minlangan qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va huquqbuzarlikka moyil shaxslarni manzilli rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar jinoyatchilik dinamikasiga qanday ta'sir qilayotgani yoritib berilgan. Jinoyatlarni barvaqt aniqlash, ijtimoiy xavf guruhlarini integratsiya qilish va mahalla darajasida profilaktik ishlarni kuchaytirish borasida amaliy xulosa va tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: hokim yordamchisi, jinoyatchilikning oldini olish, ijtimoiy profilaktika, mahalla instituti, bandlik, ijtimoiy muammolar, huquqbuzarlik profilaktikasi, manzilli yordam, aholi bilan ishlash, xavf guruhlar, integratsiya, ijtimoiy xavfli vaziyatlar, profilaktika inspektori, kompleks chora-tadbirlar.

Аннотация. В статье научно проанализирована роль помощников хокима в системе предотвращения преступности и социальная эффективность выполняемых ими задач. Освещено влияние комплекса мероприятий, направленных на обеспечение занятости населения на уровне махалли, решение социальных проблем, поддержку малообеспеченных слоёв населения и адресное сопровождение лиц, склонных к правонарушениям, на динамику преступности. Представлены практические выводы и рекомендации по раннему выявлению преступлений, интеграции групп социального риска и усилению профилактической деятельности на уровне махалли.

Ключевые слова: помощник хокима, профилактика преступности, социальная профилактика, институт махалли, занятость, социальные проблемы, профилактика правонарушений, адресная поддержка, работа с населением, группы риска, интеграция, социально опасные ситуации, инспектор профилактики, комплексные меры.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the role of the Hokim's assistants in the crime prevention system and the social effectiveness of their responsibilities. It examines how a set of measures aimed at ensuring employment at the community (mahalla) level, addressing social problems, supporting vulnerable groups, and providing targeted assistance to individuals prone to delinquency influences crime dynamics. The article also offers practical conclusions and recommendations on early crime detection, integration of at-risk groups, and strengthening preventive activities at the mahalla level.

Keywords: hokim's assistant, crime prevention, social prevention, mahalla institution, employment, social issues, delinquency prevention, targeted support, community engagement, risk groups, integration, socially dangerous situations, prevention inspector, comprehensive measures.

O'zbekistonda 2022-yildan joriy etilgan «Hokim yordamchilari» instituti mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xavfsizlikni ta'minlashning yangi modeli sifatida qaralmoqda. Mazkur institutning muhim jihatlaridan biri, hududda jinoyatchilikni kamaytirish va xavf-xatar omillarini erta bosqichda bartaraf etishdagi ishtiroki, deyish mumkin.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning 1-yanvaridan respublikaning 9 ming 259 ta mahallasida hokim yordamchilari ish boshlagan. Demak, bu har bir mahalla aholisi bilan yaqindan muloqot qiluvchi mas'ul yana bir nafarga ko'paydi, degani.

Hokim yordamchisi – har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir

mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchisi lavozimiga tayinlangan shaxs [2] hisoblanadi. Hokimga yaqin ko'makchi, ya'ni aholi bilan hokimiyat o'rtasida vositachi deyish mumkin

Jinoyatchilik profilaktikasining samaradorligi ko'p hollarda mahalla darajasidagi muammolarni erta aniqlash va ularga darhol ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, tashkiliy mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatishga bog'liq. Shu nuqtai nazardan, hokim yordamchilari jinoyatchilikka olib keluvchi omillarni kamaytirishda muhim institut hisoblanadi.

“Jamiyat boshqaruvining tayanch bo'g'ini bo'lgan, islohotlar samarasi bevosita aks etadigan mahalla tizimini hokimliklar bilan bog'lash maqsadida har bir mahallada hokim yordamchisi lavozimi joriy etiladi. Hokim yordamchisi yangi ish o'rinlarini yaratish va kambag'allikni qisqartirishga mas'ul bo'ladi. Mahalla raisi esa ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirish, oila va mahallada sog'lom muhitni shakllantirishga javob beradi”[1].

Hokim yordamchisi institutining ta'sis etilishi mahallaning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan yangi mexanizm sifatida namoyon bo'ldi. U mahallada ishsizlikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish, kambag'allikning oldini olish, tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilishni rag'batlantirish kabi vazifalarni bajarmoqda. Bu, o'z navbatida, mahallalarda iqtisodiy mustaqillik va faollikni oshiradi, aholining ijtimoiy qatlamlari o'rtasidagi notenglikni kamaytiradi hamda jinoyatchilikning iqtisodiy sabablarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”gi farmoniga ko'ra, 2022-yil 1-yanvardan mahallada hokim yordamchisi lavozimi tashkil etilgan. Farmonga ko'ra, hokim yordamchisining asosiy vazifasi mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni xonadonbay o'rganish, aholining bandlik darajasini, oilalarning daromad manbalarini, tomorqa yerlaridan foydalanish holatini hamda daromadli mehnatga bo'lgan intilishi va ehtiyojlarini tahlil qilish, tadbirkorlikni kengaytirish orqali mahallaning iqtisodiy rivojlanishini ta'min-

lash, doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan, ishsizlar, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning qiziqishini o'rganish va ularni kasb-hunar hamda tadbirkorlik o'quv markazlariga yo'naltirish, bitiruvchilar bandligini ta'minlashga yordam berish hisoblanadi.

Bundan tashqari mahalladagi bo'sh ish o'rinlarini hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning mavsumiy ishchilarga bo'lgan talabini aniqlash orqali ishsizlarni, birinchi navbatda, “temir daftar”, “ayollar daftari” va “yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlar va xotin-qizlarni bo'sh (vakant) ish o'rinlariga joylashtirish hamda haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, jumladan, oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kreditlar olishda ko'maklashish, mahallaning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, oilaviy tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish istagini bildirgan yetakchi tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratishni tashkil etish, ularga tadbirkorlik bilan mustaqil shug'ullanish tajribasiga ega bo'lmagan fuqarolarni o'z faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun birlashtirish, tomorqadan samarali foydalanishni tashkil etish, uy sharoitida dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, quyonchilik, asalarichilik, urug'chilik, ko'chatchilik, gulchilik kabi faoliyat turlarini yo'lga qo'yishga ko'maklashish ham ko'zda tutilgan edi.

Shuningdek, issiqxona qurish, tomorqasini sug'orish uchun vertikal sug'orish quduqlarini burg'ilash, qishloq xo'jaligi kooperativiga a'zo bo'lish, asbob-uskuna va mehnat qurollarini xarid qilish, bino va inshootning ijara to'lovi hamda kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qishi uchun subsidiyalar olishda ko'maklashish, bo'sh bino va yer maydonlarini aniqlab, ularni belgilangan tartibda tadbirkorlik subyektlariga ajratish bo'yicha tegishli tashkilotlarga takliflar kiritish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga to'siq bo'layotgan muammolarning (muhandislik-kommunikatsiya tizimlariga ulanish va ulardan foydalanish, turli xil faoliyatni yo'lga qo'yish uchun ruxsatnomalar va litsenziyalar olish, bo'sh bino va yer maydonlarini tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun ajratish va boshqalar) tegishli tashkilotlar tomonidan hal etilishini tashkil etishda ham bevosita hokim yordamchilari mas'ul etib belgilangan. Shu bilan birga, hokim yordamchisi “mahalla yettiligi” a'zosi [3] ham hisoblanadi.

Hokim yordamchisi orqali yo'naltirilgan masa-

lalar turli ijtimoiy qatlamlarning iqtisodiy va mehnatga doir ehtiyojlarini qamrab oladi. Band bo'lmagan aholi, doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan va ishsiz fuqarolarni o'z vaqtida qo'llab-quvvatlash, ularni mehnat bozoriga integratsiya qilish va o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini ta'minlash shular jumlasidandir. Shuningdek, hunarmandchilik, dehqonchilik, tadbirkorlik yoki boshqa mustaqil mehnat faoliyati bilan shug'ullanish istagidagi fuqarolarni qo'llab-quvvatlash orqali mahalladagi iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Hokim yordamchilari faoliyatidagi eng muhim bosqich – mahallaning ijtimoiy, iqtisodiy, demografik va psixo-ijtimoiy holatini batafsil o'rganish. Bunga amerikalik sotsiolog Robert K. Merton tomonidan 1930 yillarda ijtimoiy diagnostika [4] borasida ilgari surilgan g'oyalarni misol sifatida keltirish mumkin. Ijtimoiy diagnostika (social diagnostics) – bu mahalladagi vaziyatni kompleks baholash, xavf omillarini aniqlash va prognozlash orqali profilaktik qarorlar qabul qilish. U sotsiologiya, kriminologiya, iqtisodiyot, demografiya va psixologiya fanlari o'rtasidagi integratsiyalashgan yondashuvni talab qiladi.

Hokim yordamchilari mahalladagi ijtimoiy va iqtisodiy holatni baholashda, ayniqsa, daromad past bo'lgan hududlardagi muammolarni va ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Mazkur omillar tahlili ijtimoiy tengsizlikni aniqlash, profilaktika va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun juda zarurdir. Daromadning pastligi fuqarolarning kundalik hayotiga ta'sir ko'rsatadi, bu esa ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni murakkablashtiradi.

Daromad past hududlarda ijtimoiy tengsizlik sezilarli bo'ladi. Buning sabablari ko'p hollarda ijtimoiy va iqtisodiy resurslarning to'g'ri taqsimlanmasligi bilan bog'liq. Aholi orasidagi iqtisodiy va ijtimoiy farqlar aholining hayot sifatiga ta'sir qiladi. Ma'lumki, daromad past bo'lgan hududlarda aholi o'z ehtiyojlarini qondirishda muammolarga duch keladi. Bu omil ijtimoiy tenglik, urf-odatlar, qadriyatlar tizimining o'zgarishiga, shuningdek, odamlar o'rtasida muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Qarz, qimor va firibgarlikka moyillik ham daromadning pastligi bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy

muammolarni anglatadi. "Deviant xulq-atvor" konsepsiyasiga asoslanib aytish mumkinki, daromad kamaygan har qanday jamiyatda odamlar adolatsizlikni his qiladi va o'zlarini iqtisodiy inqirozdan himoyalash maqsadida yolg'on, firibgarlik yoki qimorga moyil bo'ladi, natijada ijtimoiy me'yorlarga zid harakat qila boshlaydilar.

Daromad past bo'lgan hududlarda maishiy nizolarning ko'payishi ehtimoli ortishi mumkin. Maishiy zo'ravonlik va o'zgarishlarga moyillikning paydo bo'lishi, umuman olganda, iqtisodiy bosim va ijtimoiy falajlik bilan bog'liq. Agar oila a'zolaridan birortasi ishsiz bo'lsa yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lsa, bu holat o'zaro nizolarga, ruhiy va psixosotsial zo'ravonlikka olib kelishi mumkin.

Maishiy zo'ravonlik, oiladagi iqtisodiy muammolar, ichkilik va ijtimoiy xavfning kuchayishi bir-birini to'ldiradi. Shuning uchun, bunday hududlarda profilaktik choralar kompleks bo'lishi kerak: psixologik yordam, ijtimoiy dasturlar, iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va jamoatchilikni tarbiyalash – barchasi birdek ahamiyatga ega.

Ilmiy tadqiqotlar, shu jumladan, kriminologik modellar, daromad darajasining pastligi va jinoyatchilikning ko'payishi o'rtasida aniq korrelyatsiyani ko'rsatmoqda. Kriminologik tahlillar natijasi daromad darajasining 10% ga pasayishi maishiy xarakterdagi jinoyatlarning 4–6% ga o'sishiga sabab bo'lishini ko'rsatadi. Past daromadli odamlar iqtisodiy va ijtimoiy yetishmovchiliklarga duch kelganlarida, jinoyat qilishga moyilliklari ortadi. Bu holat jahon amaliyotida "iqtisodiy stress – deviant xulq" nazariyasi sifatida ma'lum bo'lgan yondashuvga ko'ra, aholi daromadining pasayishi ijtimoiy xavfsizlikka daxldor bo'lgan bir qator ko'rsatkichlarni salbiy tomonga o'zgartirib, jinoyatchilikni keskin oshiradi.

Past daromadli hududlarda kriminogen xavfning oshishiga bir nechta omillar ta'sir ko'rsatadi: mehnat bozorida raqobatbardoshlikning yetishmasligi, turmush darajasining iqtisodiy pasayishi, qarzdorlik (kredit) yukining o'sishi, ijtimoiy adolat to'g'risidagi tasavvurning buzilishi, shuningdek, psixologik bosim va stressning kuchayishi. Kriminologik tahlillarga ko'ra, bu kabi omillar bir-biri bilan chambarchas bog'langan holda, shaxsning jinoyat sodir etishga moyilligini oshiradi va shu tariqa umumiy jinoyatchilik dinamikasida maishiy,

mayda talonchilik, bezorilik va o'g'irlik kabi jinoyatlar ulushi ortishiga zamin yaratadi.

Shu nuqtai nazardan, respublikada "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyilini amalga oshirish doirasida mahallalarda xavfsiz va barqaror ijtimoiy muhitni yaratishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tashabbus doirasida o'tgan yilda xonadonlar, oilalar va profilaktik hisobdagi shaxslar kompleks o'rganilib, huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan 587 606 nafar shaxs aniqlangan. Bu ko'rsatkich aholi o'rtasidagi kriminogen xatarlarni ilmiy asosda baholash va ularni bartaraf etish bo'yicha maqsadli profilaktik tadbirlarni shakllantirish imkonini berdi.


Aniqlangan ushbu toifalar bilan individual ishlash, ularni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, psixologik reabilitatsiya, bandlikni ta'minlash va jamoatchilikka integratsiya qilish choralari jinoyatchilikning oldini olishning eng samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda hokim yordamchilari institutining ishtiroki ayni paytda jinoyatchilik profilaktikasining muhim bo'g'ini sifatida namoyon bo'ldi.

2024-yilda hokim yordamchilari tomonidan amalga oshirilgan bandlikni ta'minlash, ijtimoiy himoya, kasbiy tayyorgarlik va iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan choralar profilaktikaning

kompleks mexanizm sifatida faol ishlaganini ko'rsatadi. Xususan, bir yil davomida 25 369 nafar shaxsning bandligi ta'minlangani, 7 264 kishiga davlat subsidiyalarini olishda amaliy yordam berilgani, 4 987 nafar fuqaro hunarmandchilik sohasiga yo'naltirilgani, 6 510 nafar kishi turli kasblarga o'qitilgani aholi bandligini oshirish va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishning samarali mexanizmlari ekanidan dalolat beradi. Shuningdek, 7 282 nafar fuqaroga dehqonchilik uchun yer maydoni ajratilishi va 17 297 nafar shaxsni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish orqali ularning o'zini o'zi band qilish imkoniyatlari yaratilgan. Yana 24 089 nafar [5] fuqaroga turli yo'nalishlarda qo'shimcha yordam ko'rsatilgani ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning kengayishiga xizmat qilmoqda.

Bu ko'rsatkichlar aholini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy xatar guruhlarini barqaror turmush tarziga qaytarish maqsadida amalga oshirilayotgan choralar samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Ilmiy nuqtai nazardan, bandlikni ta'minlash, kasbiy ko'nikmalarni oshirish va iqtisodiy faollikni rag'batlantirish jinoyatchilikning pasayishida eng kuchli profilaktik omillardan biri hisoblanadi. Zero, iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishi va ijtimoiy himoyaning kuchayishi shaxslarning huquqbuzarlikka moyilligini sezilarli darajada kamaytiradi.

HOKIM YORDAMCHILARI TOMONIDAN AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR



Bunday keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar faqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bilan cheklanib qolmay, balki kriminogen vaziyatni yumshatishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, aholi bandligi darajasining oshishi, mikrobiznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, kasbiy qayta tayyorlash dasturlari, ijtimoiy mablag'lardan samarali foydalanish jinoyatchilikning kamayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Demak, mahalla va hudud miqyosida amalga oshiriladigan bunday kompleks chora-tadbirlar nafaqat iqtisodiy farovonlikka, balki jinoyatchilik profilaktikasida ham muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda mahallaning profilaktika inspektori hokim yordamchisiga hududdagi jinoyatchilikning oldini olish maqsadida quyidagilar bo'yicha ijtimoiy muammolar yo'naltiradi: band bo'lmagan aholi muammolari; doimiy daromad manbaiga ega bo'lmaganlar; ishsiz fuqarolar; o'zini o'zi band qilishni istaganlar; mustaqil mehnat faoliyati bilan shug'ullanmoqchi bo'lganlar; hunarmandchilik va dehqonchilikka qiziqqanlar; kasb-hunarga ega bo'lmaganlar; tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lganlar; bo'sh yer maydonlaridan foydalanilmagan holatlar bo'yicha; mehnat yarmarkalarini tashkil etish va unga aholini jalb etish bo'yicha; bandlik bo'limi kvotasi asosida bo'sh ish o'rniga joylashtirish masalalari bo'yicha; migratsiyadan qaytgan va bandligi ta'minlanmagan fuqarolar bo'yicha; tashqi migratsiyadan qaytgan, moslashuvda qiynalayotgan fuqarolarni mahalliy mehnat bozoriga integratsiya qilish masalalari bo'yicha; nizoli yoki ajrashgan oilalarda ishsiz qolgan shaxslar bo'yicha; nogironligi bor, ammo ishlashga layoqatli fuqarolar bo'yicha; yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha; kasb-hunar kollejlari (texnikumlari) va oliy o'quv yurtlarini bitirgan, ammo hali ishga joylashmagan yoshlar masalalari bo'yicha; mahalladagi bo'sh turgan inshoot yoki bino-hovlilardan foydalana olmayotgan fuqarolar bilan manzilli ishlash bo'yicha; bo'sh turgan xonadon yoki yaroqli inshootlarda xizmat ko'rsatish faoliyatini yo'lga qo'yish istagidagi fuqarolarning masalalari bo'yicha; tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirish istagidagi norasmiy ishlayotgan fuqarolar bo'yicha; aholining moliyaviy savodxonligi past bo'lgan qatlamlarining masa-

lari bo'yicha; kredit, mikroqarz olish, oilaviy byudjet yuritish, jamg'arma madaniyatini shakllantirish bo'yicha trening va seminarlar tashkil qilish bo'yicha; boquvchisini yo'qotgan oilalarning mehnatga layoqatli a'zolari masalalari bo'yicha ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshiriladigan shaxslar va hokazo.

Xullas, bugungi kunda mahallalarda aholi bilan manzilli va kompleks ish olib borishda profilaktika inspektori hamda hokim yordamchisining o'zaro hamkorligi jinoyatchilikning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular tomonidan aniqlanayotgan ijtimoiy muammolar toifalari tahlili shuni ko'rsatadiki, jinoyatchilikning katta qismi shaxsning iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik noqulay sharoiti bilan uzviy bog'liqdir.

Birinchi navbatda, bandligi ta'minlanmagan, doimiy daromad manbaiga, kasb-hunarga ega bo'lmagan yoki mehnat bozorida o'z o'rnini topa olmayotgan shaxslar jinoyat sodir etish xavfi yuqori bo'lgan guruhni tashkil etadi. Bu holatda ishsizlik nafaqat iqtisodiy qiyinchiliklarni, balki ijtimoiy tengsizlik, o'ziga bo'lgan ishonchsizlik, stress va deviatziyaga moyillik kabi psixologik holatlarni ham yuzaga keltiradi.

Ikkinchidan, mehnat migratsiyasidan qaytgan va moslashuv jarayonida qiynalayotgan shaxslar, ayniqsa, yoshlar uchun adaptatsiya jarayonining yetarli darajada tashkil etilmasligi ularning ijtimoiy muhitida bo'shliq hosil qiladi. Bu esa huquqbuzarlikka moyillikni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, nizoli, ajrashgan oilalarda tarbiyalanayotgan, moddiy qiyinchilikka duch kelgan yoki psixologik bosimga uchrayotgan fuqarolar, ayniqsa, yoshlarda jinoyat yo'lga kirish xavfi ortib boradi. Bu toifadagi shaxslar bilan manzilli ishlash, ularni bandlik, o'qish yoki ijtimoiy faollikka yo'naltirish muhim profilaktik mexanizm hisoblanadi.

To'rtinchidan, mahalladagi bo'sh turgan inshootlar va iqtisodiy resurslardan foydalanilmayotgan holatlar aholi o'rtasida ish bilan ta'minlanmaganlik muammosini yanada chuqurlashtiradi. Shu bois profilaktika va ijtimoiy xizmat organlarining bandlik bo'limi, tadbirkorlik tuzilmalari, moliyaviy savodxonlik markazlari bilan integratsiyada ish olib borishi jinoyatchilikning barvaqt oldini olishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, aholining moliyaviy savodxonligi past qatlamida qarzdorlik, noqonuniy mehnat, norasmiy tadbirkorlik kabi holatlar ko'p uchrashi ularni ijtimoiy xavfli yo'llarga moyilligi ehtimolini oshiradi. Shu bois trening, seminar, huquqiy va psixologik maslahatlar jinoyatchilikning ijtimoiy ildizlarini bartaraf etishda muhim profilaktik vosita sanaladi.

Tahlillar yana shuni ko'rsatadiki, profilaktika inspektori tomonidan hokim yordamchisiga yo'naltirilayotgan ijtimoiy muammolarning aksariyati

jinoyatchilikning ijtimoiy-iqtisodiy sabablari bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun jinoyatlarning oldini olish faqat huquqiy choralar bilan emas, balki mehnat, ta'lim, tadbirkorlik, ijtimoiy ko'mak va psixologik xizmatlarni o'zaro integratsiya qilgan holda amalga oshirilishi lozim.

Kompleks profilaktikaning asosiy tamoyili – “xavf guruhlarini erta aniqlash va ularni ijtimoiy muhitga integratsiya qilish”dan iborat bo'lib, ushbu yondashuv mahalla hududida jinoyatchilikning tizimli kamayishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan manbalar

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz / Yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Hokim yordamchilari faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil etish to'g'risida”gi 72-son qarori // <https://lex.uz>.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ““Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2024-yil 30-noyabrdagi 801-son qarori.
4. Николаев В.Г., Бернштейн В.О., Merton Robert / Гуманитарный портал: персоналии [Электронный ресурс] // Центр гуманитарных технологий, 2006–2025 (последняя редакция: 01.12.2025). URL: <https://gtmarket.ru/personnels/robert-merton>. <https://businesscasestudies.co.uk/sociological-theories-strain-theory-social-disorganization-labeling-theory/>
5. Jinoyatchilik tendensiyalari va omillari davlat hisobotlari (2024-yil bo'yicha): Axborot-tahliliy hujjat. – T.: O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2025. – 136 b.